O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

R.HAYITBOYEV. R.AMRIDDINOVA

TURIZMNING MAXSUS TURLARI

(Uslubiy qo‘llanma)

S a m a r q a n d 2008

R.Xayitboyev. R.Amriddinova - «Turizmning maxsus turlari». Uslubiy qo‘llanma.

Taqrizchilar: Tuxliyev I. S.- «Xalqaro turizm va turizm cervisi» kafedrasi mudiri, iqtisod fanlari doktori, professor.

M.M.Maxmudov -O‘zbekiston qorako‘lchilik va cho‘llar ekologiyasi ilmiy tadqiqot instituti, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, prof. «Ekologiya va hayot xavfsizligi» xalqaro fanlar akademiyasining akademigi

Uslubiy qo‘llanma universitetlar, institutlar va kollejlarning turizm yo‘nalishida talim olayotgan magistrlari, talabalari, turizm mutaxassislari va turizmga qiziquvchi tadbirkorlar uchun yozildi.

Ushbu uslubiy qo‘llanmada turizmdagi maxsus, kichik ko‘lamli noananaviy turizm turlari haqida so‘z yuritilgan.

Qo‘lyozma institutning o‘quv uslubiy kengashida muhokama qilinib chop qilishga tavsiya etilgan.

Kompyuterda sahifalovchilar: S.Qodirova, N.Abdunazarova

R.Xayitboyev., R.Amriddinova. SamISI. Samarqand 2008

KIRISH

Hozirgacha davlat tilida yaratilgan ilmiy manbalarda turizmdagi turlarga qisman tavsif berildi. Bu tavsiflar ham Rossiya davlatida chop qilingan adabiyotlar bo‘yicha amalga oshirildiki, milliy turizmni rivojlantirish nuqtai nazaridan qayd qilingan tavsiflar bizning sharoitimizda hali kutilganidek to‘liq moslashgan emas.

Mamlakatimizda turistik resurslarni to‘liq ro‘yxatga olishga, ularning mohiyatini yozishga jadal kirishilmayotganligining bosh sababi ham ana shunday holatda ekanligimizda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli «Buyuk ipak yo‘li»ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonida mamlakatimizda turistik resurslarni tadqiq qilish, ishga tushirish, bu resurslardan ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda muntazam foydalanishni yo‘lga qo‘yish alohida ta’kidlangan edi.

Prezidentimizning qayd qilingan farmonidagi talablar bo‘yicha ishlaganimizda shu narsa malum bo‘ldiki, xalqimizning boy tarixiy, madaniy, ijodkorlik va yaratuvchilik merosi, tabiatimizdagi tabiiy-tarixiy ko‘rinishlar, xalqlarimizning o‘tmish madaniyatini, hayotini aks ettirgan bitiklar, hunarmandchilik ijodlari kabi ishlab chiqish sohalarini ham ichki va xalqaro turistik resurslarga aylantirishning juda katta imkoniyatlari mavjud ekan.

Respublikamizda turizmning keng qamrovli va salohiyatli turlari bilan birga – nazarimizda, kichik, noananaviy bo‘lib ko‘ringan resurslaridan ham turizmda muvaffaqiyatli foydalanish imkoniyatlari beqiyos darajada salohiyatlidir.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, Prezidenti-mizning farmonida «Mamlakatimizda turistik resurslarni tadqiq qilish, ishga tushirish, bu resurslardan ichki va xalqaro turizmni rivojlantirishda muntazam foydalanishni yo‘lga qo‘yish» - talablarini amalda bajarish hisoblanadi.

Ikkinchidan, Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasi»da 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 325 – sonli qarorining bajarilishiga mualliflar ham o‘z imkoniyat darajasidagi ulushini qo‘shish istagidir.

Mavzu dolzarbligini hisobga olib turizmning maxsus turlariga baho berish, tavsiflar yozish, bu turlarning turizmdagi asosiy turlardan farqlanishini, turizmdagi o‘rnini aniqlash tadqiqotlari bilan ishlamoqdamiz.

Mavzuning ilmiy yangiligi – respublikamizda turizmni rivojlantirish uchun yangi turistik resurslarni tadqiq qilishdagi dastlabki ilmiy ishlardan ekanligidir.

Mavzuning maqsadi - turizmdagi maxsus turlarni aniqlash va bu turlarning ro‘yxatini tuzish, maxsus turlardan turizmda foydalanishni asoslash, maxsus turlardan foydalanishda turistik marshrutlar ishlab chiqish, maxsus turlarning turizm marketingidagi o‘rnini, ahamiyatini belgilashdir.

Mavzuning vazifasi - turizmdagi maxsus turlarning geografiyasini o‘rganish va maxsus turlarga tarif berish, turizmga jalb qilish hisoblanadi.

O‘rganish obekti – xalqimizning qadimiy hayot kechirishi davomida hozirgacha saqlanib kelingan va yanada rivojlanib borayotgan ijodkorlik, yaratuvchilik mehnati, kasbiy yo‘nalishlari, sohalari, milliy urf-odatlari, o‘yinlari, folklor san’ati, tabiatning tarixiy – ekologik iqlim jarayonlarida yuzaga kelgan ko‘rinishlaridir.

Ishning amaliy ahamiyati –O‘zbekiston turizmidagi asosiy turlari ro‘yxatiga qo‘shimcha bo‘lib yangi, istiqbolli, maxsus turlar ro‘yxatining yaratilishi va bu maxsus turlardan turizmni rivojlantirishda foydalanishning asoslanishi hisoblanadi.

Turizmdagi maxsus turlar tarifidan keyin har bir maxsus tur bilan qiziquvchilar amalda ko‘payadi, tadbirkorlik harakatlari boshlanadi, marshrutlari ishlab chiqiladi, maxsus turlar ijodkorlarida fidoyilik, g‘urur hislari kuchayadi, maxsus turlardan turizmda foydalanish dasturlari yaratiladi, turlardan foydalanish ommaviylashadi.

Alohida qayd qilmoqchimizki, risola qo‘lyozma matnini tayyorlashda va professor-o‘qituvchilar bilan bo‘lgan muhokamalarda «Turizmning maxsus turlari» atamasiga qarshi fikrlar ham, «bunday turlar yo‘q», «Matbuotda chop qilmaslik kerak», «Turizmdagi turlar aralashib ketadi» degan keskin qarashlar ham bildirildi.

Yana alohida qayd qilmoqchimizki «Turizmning maxsus turlari» kursi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti «Servis va turizm» fakultetida «Turizmda operatorlik xizmatlarini tashkil qilish» ta’lim yo‘nalishining 4 kurs talabalariga o‘qitilmoqda. Kursning o‘quv va ishchi dasturini institut o‘quv-uslubiy Kengashi tasdiqlagan. Shuning uchun ham «Turizmdagi maxsus turlar» haqida yagona xulosaga kelish uchun Siz

muhtaram o‘quvchilarning «maxsus turlar» haqidagi taqrizlaringizni, taklif va tavsiyalaringizni kutamiz.

Manzilimiz: Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, № 9 Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, tel. – 210 01 48.

Turizmdagi asosiy va maxsus turlar

Turizmning barcha turlari ishlab chiqarish va insoniyatning ijodi va yaratuvchilik sohalaridan kelib chiqgan. Ziyoratgoh joylar, tarixiy obidalar, diniy rahnomolarning dahmalari jahonning mashhur kishilari hayotidir. Faqatgina ekologik turizm turlari tabiat mahsuli hisoblanadi.

Ishlab chiqarish sohalarining yoki insonlar guruhining mo‘jizakor, mukammal va hayratomuz ko‘rinishga ega bo‘lgan mahsulotlari, inshootlari insonlar oqimini o‘ziga jalb qilishi turizm sohasini keltirib chiqardi, sohadagi turlarning ko‘payib borayotganligi ham ana shu omillarga bog‘liq.

Dunyoning 7 mo‘jizasini ko‘rish, ularning siru-asrorlari bilan tanishishga qiziqish qadim sivilizatsiyada turistlar oqimini tashkil qilganligi malum. Bu yerda birgina «turizm» so‘zi hali kashf qilinmagan, tarifi berilmagan edi.

O‘zga yerlardagi odamlarni, tabiatni ko‘rishga qiziqish, asosiy hollarda boylik izlash uchun chiqgan kishilar hozirda buyuk geografik kashfiyotchilar nomini olgan. Bu davr ham jahonda turizmning rivojlanishida alohida bosqich hisoblanadi.

Hozirga kelib inson o‘zining qiziqishi sohalarini ko‘rib ulgurish, qoniqish olish, o‘rganish, tanlash xususiyatlari va imkoniyat darajalaridan to‘g‘ri foydalanish uchun ishlab chiqarish sohalarini, tabiiy biologik resurslarni, insonlarning yashash tarzlarini alohida-alohida turizm sohasiga aylantirdi.

Dastlab inson o‘zida paydo bo‘lgan e’tiqod hissi nuqtai-nazaridan o‘z dinidagi barkamol insonlar, avliyo va shayxlarga, keyinchalik ularning qabriga sig‘indi, bu harakatlari unga xotirjamlik, osoyishtalik keltirishini sezdi. Bunday harakatlar turizmda ziyoratgoh yoki diniy turizm nomini oldi.

Keyinchalik o‘tmishdagi o‘z ajdodlari qurgan mo‘’jizakor, mahobatli qurilish inshootlariga, insoniyatning mashhur sarkardalari qurdirgan qasrlarni ko‘rishga intildi. Bu harakatlar hozirda tarixiy obidalar turizmi deb nomlangan.

Shu tariqa turizmning turlari ro‘yxati to‘lib bordi. Hozirgi rossiyalik mutaxassislarning yozishicha jahonda turizmning asosiy turlari 20-22 yo‘nalishdan iborat.

Qayd qilingan fikr, mulohazalar shuning uchun ham keltirildiki, turizmdagi maxsus turlar ro‘yxatini tuzishdan oldin turizmdagi asosiy turlarning mohiyatiga to‘xtalish zarurati bor. Asosiy turlar bilan maxsus turlar mohiyatini, mazmunini taqqoslash bu turlarni bir-biridan ajratish xususiyatlarini, sabablarini tushuntira oladi.

Turizmdagi asosiy turlarning tarifi

Turizmning turlari haqida mulohazalar, fikrlar bildirilganda ishning kirish qismida qayd qilganimizdek rossiyalik turizm mutaxassislarining fikrlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinib berilayapti.

Turizmdagi turlarni tasniflashdagi chalkashliklar ham turizmdagi turlarga, turistlar sonini, harakatlanishini, xizmatlar turini ham aralashtirish, turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni ham qiyinlashtiradi, haqiqiy turlarning qaysilari muhimrog‘u, qaysi turlar o‘z salohiyati bo‘yicha keyinroq turadi, ajratish mushkullashadi.

Talabalardan turizmning turlarini sanab bering degan savolga talaba - ichki turizm, xalqaro turizm, kiruvchi turizm, chiquvchi turizm, avtoturizm deb keyinchalik ziyoratgoh turizmi, ekologik turizm, sport turizmi deb davom etadi.

Javobdan malum bo‘ladiki, talaba turizmning turlarini statistika uchun kerak bo‘ladigan turistlar oqimini hisobga oladigan ichki, xalqaro, kirish va chiqish turistlar harakatiga qo‘shib yubormoqda. Ichki, xalqaro, kirish va chiqish turizmi deganda turistlarning sonini hisobga olish va o‘sish yoki kamayishga qarab rejalashtirish ishlarini amalga oshirish tushuniladi. Bu ko‘rsatgichlar turizmdagi tur emas. Turizmdagi tur turistning malum bir qiziqish obekti-turistik resurs – makonni anglatadi.

Turizm rivojlangan mamlakatlarda qaysi turlar ro‘yxatga olingan va qaysi belgilar asosida turni darajalarga bo‘lganligini bilmaganimiz pand bermoqda.

Aleksandrova A.Yu. (2008) ma’lumotlari bo‘yicha turizmdagi maxsus turlar qo‘yidagilardan iborat:

1. Shahar turizmi.
2. Ishchanlik turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Ekologik turizm.
5. Sport turizmi.
6. Ziyoratgoh turizmi.

Bu turlarni tahlil qilganimizda sport turizmi to‘rtta turga ajratilgan:

- tog‘ sport chang‘i turizmi;
- golf turizmi;
- dayv turizmi;
- eksterimal holatlardagi turizm.

Yuqoridagi turizm turlarini maxsus yoki asosiy deb ajratish xususiyatlarini topish qiyin. Ekologik, ziyoratgoh va sport turizmlari jahonda eng katta turistlar oqimini tashkil qiladigan turlar hisoblanadi. Golf, Dayv turizmi va Ekstremal turizm turlarini diniy, tarixiy, ekologik va

sport turizmi turlariga tenglashtirib bo‘lmaydi. Demak Rossiya davlati turizmida turizmdagi turlar darajalarga ajratilgan emas.

Rossiyalik yana bir olima, mutaxassisning turizmdagi turlarni tiplarga ajratishini ko‘rib chiqamiz (1jadval).

1-jadval

Turistlarning maqsadi bo‘yicha turlarni tiplarga ajratish. (Sorokina A.A. 2007)

Turning tiplari	Turistlarning maqsadi	O‘tkazish joylari
Faol dam olish (aktiv) tipi	1. Sport bilan shug‘ullanish 2. Sarguzasht 3. Yangi ta’surotlar izlash 4. Hamfikrni axtarish	Tog‘ chang‘i sporti bilan haftani o‘tkazish
Sust (passiv) dam olish tipi	1. Ekologik toza muhitli joylarda dam olish. 2. Tabiat landshaftlari-dagi betakrorlikdan zavqlanish. 3. Bo‘sh vaqtni ko‘ngil-xushlik bilan o‘tkazish	Antaliyada haftalik dam olish
Davolanish tipi	1. Hamma qulayliklar sharoitida dam olish 2. Parhezli ovqatlanish 3. Organizmni sog‘lomlashtirish	Kislovodsk shahridagi sanatoriyalarda dam olish
Bilishga, o‘rganishga oid tiplar	1. Har xil mamlakatlar, regionlardagi aholi-ning urf-odatlari va madaniyati bilan tanishish 2. Ko‘rgazmalarga, teatr larga va muzeylarga borib dunyoqarashini kengaytirish 3. Yangi tanish ortirishga intilish	Yevropa davlatlari poytaxtlariga avtobuslarda turlarni o‘tkazmoq

Chet elda o‘qish, ta’lim olish tipi	1. Litsenziya, diplom va sertifikatlar olish	Malta davlatida ingliz tilini o‘rganish
Mavzuli turlar tipi (sab-tur)	1. Hamfikr bilan muloqot yo‘lini izlash 2. Dunyoqarshni kengaytirish 3. Tajriba almashtirish	Finlyandiyadagi kattejlarda dam olish
Rural		
Insentiv turlar tipi	1. Alohida xizmat ko‘rsatgan ishchilarni rag‘batlantirish	Firmalararo musobaqa g‘oliblar-iga qora dengizga yo‘llanma berish
Ekotur tipi	1. Tabiat bag‘rida bo‘lish 2. Flora va fauna bilan tanishish	Kavkaz qo‘riq - xonasiga sayohat
Voqeali turlar tipi	1. Voqealarda, konsertlarda, olimpiya o‘yinlarda qatnashish	Venesiyadagi karnavalga sayohat
Ekstremal turlar tipi	1. Hayot yoki sog‘liq uchun tavakkal qilish 2. Adrenalin qabul qilish	Sibir daryolari bo‘ylab raft turlar
Klubli dam olish	1. «Buyurtma» bo‘yicha dam olish 2. Maksimal komfort va sifatli xizmat 3. Ko‘p maqsadli turlar (dam olish, sport, ekskursiya va boshq…)	Bolear orollaridagi klublarga sayohat

Jadval ma’lumotlari bo‘yicha turizmdagi turlar tiplarga, turizm tiplari esa turizmdagi turlarga aralashtirilib yuborilgan. Turizmning turlari bor, tiplari yo‘q. Turizmning ba’zi bir turini ko‘p tarmoqli bo‘lganligidan tiplarga ajratish mumkin. Masalan sport turizmini – futbol sporti tipi, valeybol sporti tipi, chang‘i sporti tipi, yengil va og‘ir atletika sporti tipi va hakozolar. Shuningdek, suv sporti turini – suvga sakrash, suvda har xil usullarda (erkin, brass) suzish, qayiqda (kanoe, baydarka) suzish tipi va

hakozolar, tog‘ chang‘i sportini – marraga yugirish, tramplindan sakrash, to‘siqlardan o‘tish va hakozolar tiplarga bo‘lish mumkin.

Lekin qayd qilingan sport o‘yinlari – sport tiplari emas. Xalqaro miqiyosda sport turlari deb tan olingan. Shuning uchun ham turizmdagi turlarni tiplarga bo‘lish turizmdagi turlarning mohiyatini, mazmunini adashtirib yuboradi.

Jadvalda faol dam olishni aktiv tip deb va bu tipga turistning sport bilan shug‘ullanish, sarguzasht izlash, yangi ta’surotlar olish va hamfikrlar axtarish maqsadlari qo‘yilgan. Sport bilan shug‘ullanish turist uchun tur emas balki, o‘zining jismoniy salomatligini mustahkamlash hisoblanadi. Turist uchun dam olish biror sport turiga ishqiboz bo‘lish, o‘sha sport turi musobaqalarini zimdan kuzatish, tomosha qilish hisoblanadi. Sarguzashtni hohlovchi turist aktiv dam olishdan ancha uzoqda bo‘ladi. Chunki, sarguzasht turizmida oldinda yuz beradigan voqealarni bilib bo‘lmaydi va dam oladigan, belgilangan makon ham bo‘lmaydi. Sarguzasht turizmi faqat qandaydir voqealarni, ko‘rmagan yerlarni, ta’surotlarni kutib harakat qilish hisoblanadi.

Shu grafadagi aktiv dam olish tipiga yangi ta’surotlar izlash va hamfikrni axtarish maqsadini kiritish umuman tushunib bo‘lmaydigan iborlardir. Chunki, ma’lum bir turistik resursga sayyohatga chiqgan turist ta’surotni ham, hamfikrni ham hech qachon izlamaydi. Ikkala hodisa ham sayohat vaqtida yuz beradi.

Xuddi shuningdek, sust dam olish passiv tipga ajratilgan. Bu yerda turistning maqsadi – ekologik toza muhitli joylarda dam olish, tabiat landshaftlaridagi betakrorlikdan zavqlanish, bo‘sh vaqtni ko‘ngilxushlik bilan o‘tkazish hisoblanadi. Endi tasavvur qiling, qayd qilingan joylarda dam olish, yayrash passiv dam olish hisoblansa. Axir har qanday inson uchun toza havoli tabiat bag‘rida dam olish azaliy orzu bo‘lib kelgan. Shu o‘rinda turizmda aktiv, passiv so‘zlarini ishlatishda ham ancha mushohada qilishni talab qiladi. Bu so‘zlar Rossiya davlati turizmida ishlatilayotgandir. Lekin bizda, ayniqsa dam olishni aktiv, passiv deb darajalash butunlay noto‘g‘ri xulosadir.

Jadvaldagi bilishga o‘rganish tipi va chet elda ta’lim olish tiplari ilmiy va kasbiy faoliyat turizmi deyiladi. Lekin chet elda ta’lim olish, o‘qish uchun faqat Malta davlatida ingliz tilini o‘qish shart emas. Shuningdek, davolanish tipi sog‘lomlashtirish turizmiga, sab-tur tipi, rural-tur tipi va insentiv turlar tipidagi turistlarning maqsadi – kasbiy faoliyat turizmi va agroturizm mavzularidir. Insentiv tur tipi bizda ijtimoiy turizmning mohiyatini anglatadi.

Shuningdek «Tabaiat bag‘rida bo‘lish, tabiatdagi betakrorlikdan zavqlanish» ekotur, sarguzasht, passiv dam olish, rural tur va klubli dam olish turi tiplariga ham kiritilgan va bu holatda aniq ekoturga ta’rif berish ham chalkashib ketgan. Ikkinchidan, sab, rural va insentiv so‘zlari S.I.Ojegov va N.Yu. Shvedovlarning mashhur – «Tolkoviy slovar russkogo yazika», (Moskva, 1999 Rossiyskaya akademiya nauk). kitobida yo‘q, ma’nosi ma’lum emas.

A.V. Sorokinaning yuqorida tahlil qilingan jadvalini ushbu qo‘llanmada keltirishga umuman zarurat ham, ehtiyoj ham yo‘q edi. Jadvalni keltirishimizning sababi shundaki, institutimizning turizm va servis ta’limi yo‘nalishida turizmga oid ko‘plab fanlar, kurslar o‘qitilmoqda. Bu fanlarning deyarli barchasi turizmdagi turlar va resurslar bilan birga ishlaydi. Hozirgi vaqtda bu fanlardan uslubiy qo‘llanmalar va ma’ruza matnlari tayyorlanib talabalarga yetkazilib berilmoqda.

Yangi ma’ruza matnlarida, uslubiy qo‘llanmalarda mualliflar Rossiyalik turizm mutaxassislari, prof-o‘qituvchilari nashr qilgan darslik, qo‘llanmalardagi turizm atamalarini keltirishi to‘g‘ri albatta. Lekin, O‘zbekiston turizmi uchun o‘ziga xos bo‘lgan, qulay, milliy turizm atamalari haqida ayniqsa turizmning turlari va resurslari haqida yagona fikrlarni, atamalarni talabalarga yetkazish va tushuntirishga kelishib olish juda zarur.

Talabalar bir fandan turizm turlarini tip deb ikkinchi – bir fandan passiv tur va uchinchidan – aktiv tur, to‘rtinchidan sab tur, rural tur deb ataydigan bo‘lsa, xulosa aniqki turizmda tayyorlanayotgan yangi avlod mutaxassislari turizmning haqiqiy mohiyatini bilib olishdagi bilimi to‘liq bo‘lmaydi. Turizmning haqiqiy mohiyati, bu sohaning rivojlanish manbai, o‘zagi, yadrosi turistik resurslar va bu turistik resurslardan foydalanishda aniq mavzuli, resurs mazmunini, mohiyatini anglatadigan turni ishlab chiqish hisoblanadi. Tur nomi esa birinchidan, turistik resursning, (ob’ektning) mohiyati mazmunidan (masalan, diniy ziyoratgoh turizmi va hakozo….) ikkinchidan, turistning hohishi, qiziqishidan (masalan, sport turizmi, sog‘lomlashtirish turizmi, dam olish turizmi, kasbiy faoliyat turizmi va hakozo..) kelib chiqadi.

Shuningdek, turizmning shakllarini ham turizmdagi turlarga aralashtirish, qo‘shish butunlay noto‘g‘ri xulosalarni keltirib chiqaradiki bunday holatga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

Tur – turist uchun ma’lum marshrutda, ma’lum turistik ob’ektga, ma’lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish,

ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa) to‘plamidir.

Butunjahon turizm tashkiloti (VTO) – turizmning beshta turini istiqbolli yo‘nalish deb e’lon qilgan.

1. **Sarguzasht turizmi.**

Bu tur asosan tog‘ cho‘qqilariga chiqish, suv osti kemalarida sayohat qilish va «erning oxiri»ga sayohat yo‘nalishlarida rivojlanib bormoqda. O‘zbekistonda bu turni tog‘ so‘qmoqlari, cho‘llar bo‘ylab va Orol dengizi havzasiga sayohat marshrutlari bo‘yicha rivojlantirish mumkin.

2. **Dengiz va suv havzalari bo‘ylab sayohat turizmi**.
3. **Madaniyatni o‘rganish turizmi.**
   a) diniy ziyoratgoh turizmi.
   b) Madaniy-tarixiy turizm.
4. **Ekoturizm.**
5. **Mavzuli turizm.**
   a) iqlimni o‘rganish.
   b) hayvonot olamini o‘rganish.
   v) o‘simlik dunyosini o‘rganish.
   g) paleontologiyani o‘rganish.

Qayd qilingan ro‘yxatda bizning fikrimizcha katta turistlar oqimini tashkil qiluvchi turlar jamlangan.

Turizmning shakllari deyilganda xalqaro statistikada sayohatlarning yo‘nalishlari bo‘yicha qo‘yidagi shakllarni ajratish mumkin.

1. **Ichki turizm** – o‘z davlati chegarasida sayohat. Ekspertlar xulosasiga ko‘ra sayoh 80-100 km dan oshgan masofaga sayohat qilsa, turizm sayyohi deyiladi.
2. **Kirish turizmi** - O‘zbekistonga boshqa davlatlardan turistlarning kelishi.
3. **Chiqish turizmi** – agar O‘zbekistonlik Malayziyaga sayohat qilsa, chiqish turizmi (turist) bo‘ladi. Malayziyaga borgandan keyin, u turist Malayziya uchun kirish turizmiga kiradi.
4. **Milliy turizm** – ichki va chiqish turizm shakllarini birlashtiradi.
5. **Xalqaro turizm** – kirish va chiqish turizmlaridan tashkil topadi.

Shuning uchun ham rossiyalik mutaxassislar adabiyotidagi chalkash tasniflardan foydalanib O‘zbekistonda turizmning qaysi turlarini rivojlantirish istiqbollari borligiga to‘xtalish fikrimizcha to‘g‘ri bo‘ladi.

Umuman olganda turizmning turlarini belgilashda O‘zbekiston uchun qulay bo‘lgan usulni qo‘llashimizni hech kim taqiqlamaydi.

Respublikamizda turizmni rivojlantirishga jadal kirishilayotgan ekan, turizmdagi turlarni salohiyatiga qarab, ularga keladigan turistik oqimlarga qarab ma’lum bir guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Turistik resurslar salohiyatiga qarab Respublikamizda turizmdagi quyidagi asosiy turlarni rivojlantirish mumkin va bu turlarni **asosiy turlar** deb qabul qilish lozim.

Diniy turizm - Islom dini olamidagi mashhur kishilarning qabrlarini ziyorat qilish. Makkaga, Madinaga haj va umra safarlari. Buxoro, Samarqand, Shaxrisabz shaharlariga kelib masjidlarda «juma» namozlarini o‘qish.

Tarixiy obidalar turizmi - Buxoro, Xiva, Samarqand, Shaxrisabz, Toshkent shaharlaridagi va Respublikamiz tumanlaridagi tarixiy obidalarni ko‘rishga qiziqish.

Ekologik turizm - Vatanimizning go‘zal tabiat mintaqalariga, noyob o‘simliklar olami va hayvonot dunyosiga, 4 faslning iqlimiy xususiyatlarini ko‘rishga qiziqish.

Arxeologik turizm - Samarqand, Buxoro, Xorazm shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qalalar harobalari, ko‘hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologik topilmalarga qiziqish.

Sport turizmi - Xalqimizning hozirda jahon bo‘yicha ommaviylashib borayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang‘i sporti, boks va boshqa musobaqalariga qiziqish.

Sog‘lomlashtirish turizmi - Vatanimizning sog‘lomlashtirish markazlarida, kurort va sanatoriyalarida, mineral, shifobaxsh suvlari maskanlarida, shifobaxsh qum- balchiqlarida, ma’danli suvlari manzillarida davolanishga qiziqish.

Rekreatsion turizm - Tabiat bag‘ridagi mo‘jizakor go‘shalarda, tog‘ o‘rmonlaridagi shifobaxsh daraxtlar ichida, tabiiy sharsharalar, zilol buloqlar yonida vaqtinchalik dam olishga qiziqish.

Ovchilik turizmi- Respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me’yorlari yaratilganligi, ovchilik maydonlarining katta hududlarni egallashi, ovchilik obektlarining aniqligi, ovda harakatlanishning erkinligidan qurol va qurolsiz ovchilikka qiziqish.

Kasbiy faoliyat turizmi - kasbiy faoliyat yuzasidan chet davlatlarga borishga, chet elliklarning respublikamizga kelishiga, tijoratchilar, tadbirkorlar, savdogarlar, qo‘shma korxonalar tuzuvchilarning mamlakatlardagi o‘z kasbi faoliyati doirasida malakalar oshirish, mahsulotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga yoki tanishishga qiziqish.

Ilmiy turizm **-** Vatanimizda va xorijda talim olish, xalqaro ilmiy markazlarda o‘qish, xalqaro yirik Universitetlarda ilmiy-amaliy malakalarini oshirish, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlarga qatnashish, xalqaro ilmiy grant loyihalarni bajarishga, magistratura, aspirantura va doktoranturani xorij mamlakatlarda , vatanimizda o‘tkazishga qiziqish.

Savdo turizmi **-** Vatanimizda va xorijda faqat savdogarchilik masalalariga, mol olib kelish va olib ketish, ayriboshlash, savdo markazlari ochish, narx-navo o‘zgarishiga, valyutalar bahosiga, yangi bozorlarga, haridor talab mollar savdosiga qiziqish.

Ijtimoiy turizm **-** Davlat tomonidan yoki shaxs ishlab turgan korxona hisobidan sayohatga chiqish, sog‘lomlashtirish, dam olish maskanlariga, kurort va sanatoriyalarga borishga qiziqish.O‘zbekistonda bunday imtiyozlarni O‘zbekiston kasabachilar uyushmasi federatsiyasi ishlab chiqadi.

Ekskursiya (tanishuv, ko‘rish) turizmi- bu tur asosan mamlakat ichkarisida ko‘proq rivojlanadi. Yakka shaxs yoki guruh bo‘lib tashabbuskor (o‘qituvchi, ekolog, injener, mutaxassis) boshliq rahbarligida qisqa muddatlarda o‘lkashunoslik, tarixiy, madaniyat muzeylarini, botanika bog‘larini, zavod, fabrikalarning ish faoliyatlarini, yaqin masofalardagi oromgohlar, tabiiy landshaftlarni, hayvonot bog‘lari, suv va daryo havzalarini ko‘rishga qiziqish.

Shaharsozlik turizmi **-** O‘z vatanida va xorij davlatlaridagi zamonaviy shaharlarni ko‘rishga qiziqish. Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz shaharlaridagi yangi obidalar va yangi tipda kengaytirilgan shaharlar, ayniqsa cho‘llarimizda bunyod etilgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlariga qiziqish ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham o‘zining turistik bozorini topishni taminlashimiz lozim.

Qayd qilingan 14 ta turizm turi Respublikamizda talablar darajasida rivojlanishi mumkin. Chunki bu turizm turlariga (ichki va tashqi turizmda) turistlarning qiziqishlari haqida batafsil malumotlar bor. *Ikkinchidan,* qayd qilingan turlarning turistik resurslari - obektlari xilma-xilligi, mazmundorligi, diqqatga sazovorligi, ulug‘vorligi, muqaddasligi, noyobligi, betakrorligi jihatlari, ko‘rinishlari tariflari shiddatli ravishda televideniye, internet axborotlar tizimida reklama qilinmoqda.

Shuningdek, turizm rivojlangan davlatlardagi tajribalardan malumki, bu turlarga turistlarning oqimi juda katta masshtablarda bo‘ladi. Shuning uchun ham qayd qilingan turlarni turizmdagi **asosiy turlar** deb nomlash ham to‘g‘ri bo‘ladi.

Turizmdagi maxsus turlarning tarifi

Turizmning maxsus turlari haqida Respublikamizda birinchi so‘zni aytgan va bu turlarning dastlabki ro‘yxatini tuzgan M.T.Aliyeva hisoblanadi.

M.T.Aliyeva turizmdagi maxsus turlarni quyidagicha qayd qilgan:

1. Madaniyatga qiziqish turizmi.
2. Tabiatga qiziqish turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Fermerlar hayoti turizmi.
5. Piyoda va vilosipedda harakatlanish turizmi.
6. Ixtisoslashgan motivlardagi turizm.
7. Etnik turizm.
8. Diniy ziyoratgoh turizmi
9. Kasbiy faoliyat turizmi.
10. Sog‘inish turizmi.
11. Sarguzasht turizmi.
12. Ekologik turizm.

M.T.Aliyeva o‘zining malumotlarida turizmning maxsus turlarini quyidagi tarif bo‘yicha ajratadi - «Turizmning ushbu turlariga biror rayonning o‘ziga xos, farq qiluvchi xususiyatlari bilan tanishish maqsadidagi turist sayohati kiradi. Bu sayohatlar turistlarda shakllangan (havaskorlik va professional) qiziqishlardan kelib chiqadi. Maxsus turlarga turizmning kichik ko‘lamli, noananaviy turlari ham kiradi.»

Mazkur tarif bo‘yicha ekologik turizm, diniy ziyoratgoh turizmi va tabiatga qiziqish turizmlari kichik ko‘lamli emas balki, eng ommaviy turistik oqimni tashkil qiladigan turizm turlari hisoblanadi. Shuning uchun ham turizmdagi bu uchala tur turizmning asosiy turlari ro‘yxatiga turishi bizningcha to‘g‘ri bo‘ladi.

Shuningdek, piyoda va velosipedda harakatlanish turizmning turi emas balki, turistning xohish - istagi bilan o‘zi tanlagan harakatlanish vositasidir. Agar turistning bu kabi harakatlarini tur deb qabul qilsak avtoturizm, samolyot turizmi, temir yo‘l turizmi yoki tuya va eshak turizmi degan mazmunsiz turistik atamalar paydo bo‘ladiki, bu atamalarni yaratish aslo mumkin emas. Turistning transport turlaridan foydalanishi turizmda transport xizmatlariga kirishini bilish unchalik murakkab tushuncha emas.

Ro‘yxatdagi ixtisoslashgan motivlardagi turizm turi turizmdagi aniq turni anglatmaydi. Chunki turizmdagi hozirgi turlarning barchasi malum

bir turistik resursga - obektga qiziqish natijasida xuddi, aynan shu turistik resursning – obektning yoki resurslarning – obektlarning nomiga ixtisoslashgan, nomlangan. Masalan: arxeologik turizm - qadimiy shaharlar, obidalar, sivilizatsiya qoldiqlarining ochilib hozirgi ko‘rinishini olishi; ekologik turizm – betakror tabiat va uning resurslari, biologik xilma-xillik, tabiiy mintaqalar landshafti; ovchilik turizmi - ovchilik obektlari - qushlar, hayvonlar, baliqlar.

Ro‘yxatdagi etnik turizmi va sog‘inish turizmlarini va qishloq turizmi va fermerlar hayoti turizmlarini mazmuni va mohiyati jihatidan etnik va sog‘inish turizmi, qishloq va fermerlar hayoti turizmini agroturizm deb atasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlashda M.T.Aliyevaning – «kichik ko‘lamli, noananaviy turlar» tarifi asosiy mezon qilib olindi. Shuningdek, turizmdagi barcha asosiy (katta ko‘lamli, ananaviy) turlar insonning ishlab chiqarish, bunyodkorlik, izlanuvchanlik, tarixga, tabiatga, o‘tmishga qiziqishdan kelib chiqganligini hisobga olsak, kichik ko‘lmali noananaviy turizm turlarini ham ushbu ishning o‘rganish obektlari – xalqimizning qadimdan hayot kechirishi davomida hozirgacha saqlab kelgan va yanada rivojlanib borayotgan ijodkorlik, yaratuvchanlik mehnati, kasbkorlik yo‘nalishlari sohalari, milliy urf-odatlari, milliy o‘yinlari, milliy madaniyati va sanati, shuningdek, betakror tabiatimizning tarixiy-ekologik iqlim jarayonlari tasirida hosil bo‘lgan mo‘jizakor, hayratomuz ko‘rinishlaridir.

Shu jumaladan muzeylarimizni zooparklarni va xotira bog‘larini, maydonlarini ham maxsus turlarga kiritishimiz mumkin.

Maxsus turlarni turizmda shakllantirish

Turizm resurslarini ro‘yxatga olishda va malum bir obektning turizm resursi bo‘la olishligi o‘rganilgandan keyin bu obektga yoki tabiiy makonga yoki ishlab chiqarish sohasiga «turizm» so‘zini qo‘shish bilan hal qilinmaydi. Masalan: hunarmandchilik sohasini «hunarmandchilik turizmi» kabilar.

Ishlab chiqarish resurslarini turizm resurslariga aylantirishdagi dastlabki talab mamlakatda ichki va tashqi turistlarni birinchi navbatda qiziqtira oladigan soha yoki obektni o‘rganish to‘g‘ri bo‘ladi deb hisoblaymiz. O‘rganiladigan obekt oddiy istemolda emasligi xalqimizning o‘ziga xos bo‘lgan bejirim buyumlarining boshqa davlatlarda ishlab chiqarilmasligi, urf-odatlarning milliyligi yoki milliy o‘yinlarning boshqa

davlatlardagi xalqlar hayotida umuman yo‘qligi, milliy sanatkorlik ijodlari mujassam bo‘lishi birinchi navbatda chet ellik turistlarni jalb qiladi.

Bunday obektlarga masalan hunurmandchilik, yoki ustachilikni olganimizda, dastlab dunyoning barcha davlatlarida yashayotgan xalqlarning ham o‘ziga xos milliy hunarmandchilik va milliy ustachilik sohalari albatta bor. Biz ishlab chiqarishdagi milliy hunarmandchilik yoki ustachilikda o‘zimizning hunarmandchilik yoki ustachilik sohalari buyumlarining noyobligi, go‘zal-bejirimligi, mustahkamligi, bu buyumlarda sanatkorlikning, kishilarni hayratga soladigan ijod namunalarining ko‘pligidan, boshqa davlatlardagi xuddi shunday buyumlar, mahsulotlardan ancha ustunligiga e’tibor berishimiz lozim bo‘ladi.

Masalan, kashtachilikdagi ikki yo‘nalish: oddiy kashtachilik va zardo‘zli kashtachilikning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlarning kashtachiligidan ustunligi shundan iboratki so‘nggi vaqtlarda O‘zbekistonga kelib ketayotgan davlat rahbarlari, Bosh vazirlar, mashhur adiblarga, xalqaro miqiyosdagi taniqli rahbarlar, sport va san’at yulduzlariga maxsus marosimlarda zardo‘zli to‘n va do‘ppi kiydirilmoqda. Ikkala buyum ham faqat o‘zbekistonliklar uchun milliy buyum xillari hisoblanadi. E’tibor qilsak qozoq, qirg‘iz, turkmanistonliklarning ham to‘nlari, do‘ppilari, o‘zlarining milliyligini ko‘rsatib turadi.

Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishlari deyarli bir, yashash manzillarining yaqin-qo‘shni ekanligidan bizdagi do‘ppi va zardo‘zi to‘n tikish ularda ham bo‘lishi mumkin edi. Lekin qadimiy tub joy aholining buyumlar yaratishdagi milliy urf-odatlari va iqlim xususiyatlari, bayram tantanalarida kiyinish odatlari va xush ko‘rishlari nuqtai – nazaridan Markaziy Osiyo xalqlarida qayd qilingan ikkala buyumni tikishda turli uslub, tanlash va yo‘nalish hosil bo‘lgan. Demak, bizdagi milliy do‘ppichilik va zardo‘zi to‘n tikish qo‘shni davlatlarda rivojlanmagan ekan dunyoning boshqa bironta davlatlarida bizdagidek usullari umuman yo‘q hisoblanadi. (Xitoy xalq respublikasidagi uyg‘ur xalqida ham zardo‘zi kashtachilik rivojlangan). Bu xulosalardan milliy qo‘l hunarmandchiligidagi do‘ppichilik va zardo‘zi to‘n tikishni xalqaro turizm obekti – resursi sifatida maxsus turlar ro‘yxatiga qo‘shsa to‘g‘ri bo‘ladi.

Xalqimizning milliy o‘yinlaridan turizm sohasida foydalanishning juda katta imkoniyatlari borligini ilg‘ash qiyin emas. Masalan, qushlarni urishtirish o‘yini yoki musobaqasi dunyoning juda ko‘p mamlakatlarida bor. Bizda qushlarning xo‘roz urishtirish va bedana urishtirish o‘yinlari

bor. Bu qushlarni urishtirish musobaqalari O‘zbekiston Respublikasida juda ommalashgan. Xo‘roz urishtirishning jahon birinchiligi ham o‘tkaziladi.

Endi, ichki turizmda bu o‘yinlar hozir ham shaharlar, tumanlarning bozor maydonlarida o‘tkaziladi. Xalqaro turizmda albatta bu «urishtirish» o‘yinlari ommaviylashmaydi. Chet ellarda juda kam sonli ishqibozlar bu o‘yinlarga qiziqib kelishi mumkin. Bozorlarda esa asosan vaqti bor va to‘satdan nigohi tushgan, bozorga kelgan kishilar bu o‘yinlarni tomosha qilishadi. Bu o‘yindan turizm maqsadlarida foydalanilsa ham «kichik ko‘lamli, noananaviy tur» bo‘lib qolaveradi. Bu o‘yinlarni turizmga jalb qilishning eng zarur tomoni shundan iboratki, ichki turizmda ham tashqi - xalqaro turizmda ham qayd qilingan «yangi turdan» yo‘l-yo‘lakay, turistlarning ko‘ngil ochar o‘yinlarni, dam olishni xoxlagan vaqtlarida foydalanish, turistlarga taklif qilish mumkin. Albatta bunday taklif xizmatlari pullik bo‘ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlish va ro‘yxatga olish, kuzatish, ustaxonalardagi hunarmandlar va ustalarning faoliyat va ishlab chiqargan buyumlarini tomosha qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, turizmda foydalanish uchun ro‘yxatga olayotgan aksariyat turlardan ichki turizmda ekskursiya- tanishuv turizmida, xalqaro turizmda esa qo‘shimcha tur manbalari sifatida (turistga taklif qilish, bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, suratga yoki videoga olish va hakozolar) foydalanish mumkin.

Turizmdagi maxsus turlarning tasnifi va tavsifi

Tasniflash har qanday sohaga muhim, to‘liq malumotlar beruvchi, soha rivojini rejalashtirishda asosiy manba bo‘luvchi, jadvalli muhim ma’lumotnomadir. Tasniflashda o‘rganilayotgan sohaning barcha jihatlari, xilma-xilliklari, ma’lumotlari bo‘lishi lozim.

Maxsus turizm turlarining ro‘yxatini tuzishda ba’zi bir turlar ma’lumotlarning yo‘qligi tufayli qolib ketishi mumkin. Bunday turlar aniqlanib, to‘liq tavsifi, ta’rifi berilganidan keyin turizmdagi o‘rni, talabga javob berilishi belgilanganidan keyin tasnifga qo‘shimcha qilib kiritiladi.

Turizmdagi maxsus turlar hozircha turizm turlari emas. Bu haqda birinchi bobda to‘liq aytildi. Biz turizmda maxsus turlar bo‘lishi mumkinligin hisobga olib, madaniyat sohalari, hunarmandchilik, milliy o‘yinlar va ishlab chiqarish sohalari nomlanishiga turizm so‘zini qo‘shib turizmdagi maxsus turlar ro‘yxatini – tasnifini keltirishga harakat qildik.

1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi.

Xalqimizning urf-odatlari, tildagi shevalar, oila hayoti, kattalar va yoshlar munosabatlari, salomlashish, mehmon kutish va mehmondorchilik, to‘y va diniy marosimlar, oila bayramlari, oiladagi huquqlar, kelin va sunnat to‘ylari, uy tutish va hokazolarga qiziqish.

2. Agroturizm

Qishloqlarning turli- tumanligi va tabiiy –tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.

3. Etnik va sog‘inish turizmi

Xalqlar, ellar, urug‘lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o‘zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo‘ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog‘inishi, qo‘msashidagi ichki va xalqaro turizm.

4. Milliy sanat turizmi

Milliy sanat, milliy folklor, qo‘shiqchilik, milliy raqslar, askiyalar, laparlar, aytishuvlar, rassomchilik va haykaltaroshlik, baxshilar,o‘lan aytish qo‘shiqchiliklari kabi sanat turlariga qiziqish. Bu tur quyidagi yo‘nalishlarga bo‘linadi:

4.1. Qo‘shiqchilik va raqs sanati yo‘nalishlari.

4.2. Baxshilar qo‘shiqchiligi maktablari.

4.3. Askiyalar, laparlar, aytishuvlarga qiziqish.

4.4. Milliy rassomchilik va haykaltaroshlik.

4.5. Milliy folklor turlari.

5. Tabiiy – tarixiy tasvirlar turizmi

Tabiat muzeylari va tabiat haykallari, tog‘ qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar, o‘lkashunoslik va milliy xalq hayoti tarixiy muzeylariga qiziqish. Bu tur ham quyidagi yo‘nalishlarni o‘z tarkibiga oladi:

5.1. Tabiat muzeylari va tabiat haykallari

5.2. O‘lkashunoslik muzeylari

5.3. Milliy xalq hayoti tarixi muzeylari

5.4. Qoyatoshlaridagi qadimiy rasmlar

5.5. Hayvonot bog‘lari.

6. Milliy hunarmandchilik turizmi

Milliy hunarmandchilikning turlari, milliy hunarmandchilikdagi yo‘nalishlar, xalq – memor, xalq- usta shiori va reklamasi, milliy hunarmandchilik buyumlarining mukammal va mo‘jizakorligiga qiziqish. Bu turizm turi quyidagi tarmoqlarga bo‘linib ketadi:

6.1. Duradgorlik va uning maktablari.

6.2. Kulolchilik va uning maktablari.

6.3. Kashtachilik, zardo‘zlik, milliy liboslar(do‘ppi, to‘n, belbog‘lar) tikishdagi yo‘nalishlar.

6.4. Milliy ustachilik

6.4.1 Temirchilik

6.4.2 Misgarlik

6.4.3 Musiqasozlik

6.4.4 Beshiksozlik

6.4.5 Aravasozlik

6.4.6 Sandiqsozlik

6.4.7 Egarsozlik

6.4.8 Mahsido‘zlik

6.4.9 Gilamchilik va palos to‘qish.

7. Milliy o‘yinlar turizmi.

Markaziy Osiyo xalqlarida milliy o‘yinlar nomini olgan o‘ziga xos musobaqalari, mardlik, jasurlikni namoyish qiluvchi bellashuvlar va Dune xalqlarida ko‘plab uchraydigan hayvonlar va parrandalarni urishtirishga qiziqish. Bu tur quyidagi yo‘nalishlardan iborat:

7.1. Ko‘pkari-uloq.

7.2. Milliy kurash.

7.3. Qo‘chqor urishtirish.

7.4. Xo‘roz urishtirish.

7.5. Bedana urishtirish.

7.6. Dorbozlik

8. G‘orshunoslik turizmi

O‘lkamizdagi tarixiy g‘orlar,g‘orlar haqidagi malumotlar, tarixiy shaxslar hayoti bilan bog‘liq g‘orlar, paleontologik g‘orlar, g‘orlardan o‘tmishda va hozirda foydalanish, yer osti qasrlariga sayohatga qiziqish.

9. Sirk turizmi

Sirkdagi mashhur kishilar - sanatkorlar, sehrgarlar, gipnozchilar va hayvonot turlari ishtirokidagi o‘yin dasturlariga qiziqish.

10. Agroturizm

Mamlakatimizdagi asosiy ekinlar, milliy gulchilik, introduksiya, o‘simliklar seleksiyasiga, qishloqdagi dehqonchilik, polizchilik, meva-sabzavotchilik, bahorikor va sug‘orma dehqonchilikga qiziqish.

11. Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi

Vatanimizda xalq polvonlari o‘yinlari va xalqaro polvonlarning bellashuviga qiziqish.

12. Hayot uchun xavfli sport o‘yinlari turizmi

Bu turlar asosan xorij mamlakatlarida rivojlanib bormoqda. Hayot uchun xavfli sport o‘yinlari turizmdagi bazi bir turlar faqat jahonda faqat bitta davlatda rivojlangan (masalan, korrido Portugaliyada, asov otni jilovlash Ispaniyada) bo‘lib turizm mavsumida bu hayot uchun xavfli o‘yinlarni millionlab turistlar hayajon, qo‘rquv va qiziqish bilan tomosha qiladilar. Bu turlarni ba’zida ekstremal turizm turlari deb ham atashadi.

12.1. Beys jamping - baland qoya va binolardan parashyutda sakrash.

12.2. Xelisking - chang‘ida vertolyotdan qorli tik qoyaga sakrash.

12.3. Dayving – suv ostiga sho‘ng‘ish.

12.4. Keyv-dayving - suv osti g‘orlariga sayohat.

12.5. Bull – rayding – asov ho‘kizni (buqani) jilovlash.

12.6. Korrido – asov otni jilovlash.

12.7. Syorfing – okean, dengizning shiddatli, baland to‘lqinlaridan taxta chang‘ida suzib o‘tish.

12.8. Stritlaging – avtomobillar serqatnov tik tog‘ yo‘lidan pastga qarab rolikli taxtaga yotib harakatlanish.

12.9. Skalalazing – tik qoyalarga, baland binolarga himoyasiz, arqonsiz va asboblarsiz chiqish.

12.10. Vellokross - velosipedda havoda mashqlar bajarish, noqulay joylarga chiqish va tushish.

12.11. Motokross – mototsiklda yonayotgan obektlardan sakrab o‘tish.

12.12. Rafting - o‘ta tez oqadigan, havfli shovvalar, kamarlar bor daryo oqimi bo‘ylab maxsus qayiqlarda suzish.

12.13. Dorbozlik - himoyasiz va shartli himoyada baland bino, baland qoya va keng suv havzalariga tortilgan arqondan yurib o‘tish.

12.14. Niagara - baland, sersuv sharsharalardan (bochka ichida, maxsus kiyimda va hak.) balanddan suv, bilan pastga tushish.

12.15. Koinot - kosmik kemada kosmonavtlar bilan fazoga borib kelish.

12.16. Ralli- Parij shahridan Afrika sahrolari orqali avtomobillarda, mototsikllarda Dakar shahrigacha bo‘lgan sport birinchiligi.

12.17. Zaharli ilonlar, chayonlar orasida o‘tirish, ilon o‘ynatish.

Keltirilgan maxsus turlarning tasnifidan malum bo‘ldiki O‘zbekistonda turizmning maxsus - «kichik ko‘lamli, noananaviy» turlarining «katta ko‘lamli, ananaviy» turlarga aylantirishda juda katta

turistik salohiyati bor ekan. Keltirilgan 12 ta maxsus turlardan 11 turini turizmda shakllantirish mumkin. Bu turlar ham ko‘pqirraliligi va ko‘pvariantliligi jihatidan o‘ziga xos, betakror ijodiy yaratuvchanlik yo‘nalishlariga, tarmoqlariga bo‘linib ketadi.

Mazkur turlarga ichki va ayniqsa xalqaro turistlarni jalb qilish, taklif qilishdagi tashkiliy tadbirlar ishlab chiqilsa, maxsus turlardan turizmda foydalanishning dastlabki rejalari amalga oshirilgan bo‘ladi. Ichki turizmda maxsus turlarning ommaviy rivojlanmayotganligining bosh sababi maxsus turlar manzillariga marshrutlarning yo‘qligi, bu turlar manzillarini hatto ekskursiyaga chiquvchilar ham, shuningdek shaharlarda yashayotgan aholining ham ko‘pchiligi bilmasligidir.

Bu holatning yana bir sababi, qadimiy xalq hunarmandchiligi maskanlari, xalq ustalari haqida kam yozilishi, radio, ommaviy axborotlar va televideniyeda malumotlar, reklamalarning juda siyrak holatda berilayotganidir. Aks holda Samarkand shaxriga boshqa viloyat va shaharlardan kelgan mehmonlar albatta xalq ustalari, hunarmandlari ishlarini tomosha qilishga qiziqish tufayli bunday joylarga ekskursiyalar, tashriflar qilishi mumkin edi.

Doimo yodda saqlashimiz lozimki, O‘zbekiston azaldan xalq hunarmandchiligi bilan mashhur bo‘lib kelgan. Hozirgi vaqtda respublikada xalq hunarmandchiligi asosida esdalik buyumlar ishlab chiqaruvchi 500 ga yaqin korxona mavjud. Ular chinni va sopol buyumlar, pichoqlar, sopol o‘yinchoqlar, zardo‘zi mahsulotlar, gilam, poloslar va milliy kiyimlar va boshqa buyumlar ishlab chiqarmoqda.

Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi bo‘yicha hozircha hayot uchun xavfli sport turlari turizmlarini rivojlantirib bo‘lmaydi. Chunki bu turlarni tashkil qilish hozircha boshlanmagan.

Hayotga xavf soluvchi sport o‘yinlari turizmining ayrim turlarini tadbirkorlar keyinroq tashkil qilishi mumkin. Sarguzasht va hayotga xavf soluvchi sport o‘yinlari turizmining huquqiy- qonuniy meyorlari bizda ham ishlab chiqilmagan.

Maxsus turlarning ayrim turlarini hozirdanoq ommaviylashtirishning katta imkoniyatlari bor. Masalan, tobora unutilib borayotgan dorbozlik o‘yinlarini qaytadan tiklash, doimiy dorbozlik maskanlarini belgilash lozim. Bunday holatda turistlarni bu o‘yinlarga taklif qilish vaqtlari aniq bo‘ladi. Xuddi shuningdek, ko‘pkari-uloq 2-3 oy davom etadigan, turistlarning katta oqimlarini o‘ziga jalb qiladigan g‘oyat qiziqarli turistik obekt. Bu turni ommaviylashtirish uchun eng muhim muammo turistlarni kutib olish, xizmatlarni tashkil qilish, joylashtirish, dam olish,

ovqatlantirish va tunashi sharoitlarini tashkil qilish ishlarining haligacha boshlanmaganligidir.

Maxsus turlarning tavsifi va tasnifini tayyorlashdagi ma'lumotlarning tahlili natijasida shunday asosiy xulosaga kelish mumkinki, bu turlardan turizmda foydalanish istiqbollari juda katta va murakkab muammolarni yechishni talab qilmaydi. Dastlab tashkiliy jarayonlar va bu turlarning reklamasini turizm bozoriga chiqarish talab qilinadi.

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi aniq manzillar bo‘yicha aniqlanmagan. Maxsus turlarni hosil qiluvchi ishlab chiqarish sohalari, xalq hunarmandchiligi markazlari, milliy o‘yinlar rayonlari va hokazolar hozirgacha aniq manzillar bo‘yicha ro‘yxatga olinmagan.

Samarqand shahridagi o‘lkashunoslik va O‘zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O‘zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlari, zardo‘zlik yoki milliy o‘yinlarning aniq geografik manzillari topilmadi.

Shuning uchun ham turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi asosan so‘rov, savdo - tijoratdagi axborotlar, og‘zaki hikoyalar, ko‘p yillik ekspeditsiyalarda yuruvchilarning axborotlari va hayotiy kuzatuvlar asosida tuzildi (2-jadval).

2-jadval

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

№	Turizmdagi maxsus turlar	Turizmda qiziqish, foydalanish obekti	Ommaviy rivojlangan, joylashgan tumanlar
1	Milliy madaniyatga qiziqish turizmi	Urf-odatlar, oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to‘y, sunnat to‘y, mehmon kutish va mehmondorchilik	O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari

		marosimlari	
2	Qishloq va fermer hayoti turizmi	Qishloqlarning turli - tumanligi va tabiiy – tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog‘dagi qishloqlar, suv havzalaridagi qishloqlar
3	Etnik va sog‘inish turizmi	Xalqlar, ellar, urug‘lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi, o‘zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dune bo‘ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog‘inishi	-O‘zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida - O‘zbekiston Respublikasi va qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlari
4	Sarguzasht turizmi	Tabiat mintaqalariga, uzoq yurtlarga, ellarga, tog‘larga tavakkali ga yoki reja asosida piyoda yoki trans-portda yo‘lga chiqish	O‘zbekistonda rivojlantirishga qiziqish juda kam
5	Milliy san’at turizmi	Milliy san’at, qo‘shiqchilik, raqs, rassomchilik, baxshilar hayoti, askiyalar, laparlar, milliy folklor	O‘zbekiston Respublikasining hududlarida
	5.1 Qo‘shiqchilik	5.1 Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog‘iston viloyatlari

		5.1.2. Samarkand usuli	Zarafshon vodiysi
		5.1.3. Farg‘ona usuli	Farg‘ona vodiysi
	5.2. Qo‘shiqchilik-da baxshilar faoliyati	5.2.1 Qashqadaryo-Surxondaryo usuli	Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati,
		5.2.2.Zarafshon – Nurota usuli	Samarkand viloyati, Navoyi viloyati
		5.2.3. Xorazm usuli	Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston
	5.3 Raqs san’ati	5.3.1. Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro viloyatlari
		5.3.2. Qoraqalpoqcha usuli	Qoraqalpog‘iston
		5.3.3. Buxorocha usul	Buxoro viloyati, Tojikiston Respublikasi
		5.3.4. Farg‘onacha usul	Farg‘ona viloyati, Toshkent viloyati,
	5.4 Askiyalar, aytishuvlar	5.4.1. Askiyalar	Farg‘ona vodiysi
		5.4.2. Aytishuvlar	Qoraqalpog‘iston, Xorazm
	5.5 Milliy rassomchilik va haykal-taroshlik	5.5.1. Rassomchilik	Samarkand, Buxoro, Xiva, Toshkent
		5.5.2 Haykaltaroshlik	Samarkand shaxri, Toshkent shaxri
	5.6. Milliy folklor san’ati	5.6.1. «Boysun» folklori	Surxondaryo viloyati, Boysun tumani
		5.6.2 «Lazgi» folklori	Xorazm viloyati
		5.6.3 «Besh qarsak» folklori	Samarkand viloyati Urgut tumani
		5.6.4 «Oyguloyim» folklori	Qoraqalpog‘iston
6	Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi	6.1.1.Sharsharalar	«Arslonbob»-Farg‘ona
	6.1 Tabiat muzeylari	6.1.2. Qadimiy buloqlar	“Baxmal”, “Forish”, «G‘allaorol» tumanlari Jizzax viloyati, «Nurota»tumani,

			Navoiy viloyati va hok.
	6.2 Qoyatoshlar-dagi qadimiy rasmlar	6.2.1.Tabiat haykallari	Urgut tumani, Nurobod tumani, Samarkand viloyati, «G‘allaorol» tumani Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati
	6.3 Hayvonot bog‘lari	6.3.1.Noyob hayvonlar yashash tarzi	Toshkent shahri Termez shaxri
	6.4.O‘lkashunoslik muzeylari	6.4.1. Dunyo tabiatidagi hayvon va parrandalar kolleksiyasi	Viloyatlar markazi bo‘lgan shaharlar
7	Milliy hunarmandchilik turizmi	7.1.1.Yog‘ochga o‘yma shakl solish	Xorazm usuli, Urgut usuli, Samarkand usuli, Buxoro usuli, Farg‘ona usuli
	7.1.Duradgorlik va uning maktablari	7.1.2.Sovg‘alar, shkatulkalar	Buxoro usuli, Samarkand usuli
	7.2. Kulolchilik va uning maktablari	7.2.1. Sopol buyumlar yasash	Xorazm usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg‘ona usuli
	7.3.Kashtachilik	7.3.1.Matoga rangli Gul solish	Buxoro usuli, Samarkand usuli, Jizzax usuli, Cho‘lliklar usuli
		7.3.2.Zardo‘zi kashtachilik	Urgut usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg‘ona usuli
	7.4. Milliy liboslar	7.4.1. Milliy do‘ppi	Farg‘ona viloyati, Namangan viloyati, Buxoro viloyati, Xorazm viloyati
		7.4.2. Milliy to‘n	Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati,

			Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati, Jizzax viloyati
		7.4.3.Atlas va beqasam buyumlar	Marg‘ilon shaxri
		7.4.4. Baxmal buyumlar	Samarkand shaxri
	7.5 Milliy ustachilik	7.5.1.Temirchilik, qadimiy asboblar	Respublikadagi tumanlar
		7.5.2.Misgarlik	Samarkand, Buxoro, Farg‘ona, Xiva
		7.5.3. Musiqasozlik	Samarkand Xorazm, Farg‘ona vodiysi
		7.5.4.Beshiksozlik	Samarkand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi, Urgut
		7.5.5. Aravasozlik	Qo‘qon
		7.5.6. Sandiqsozlik	Urgut, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona vodiysi
		7.5.7.Egarsozlik	Baxmal Tumani, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati
		7.5.8. Mahsido‘zlik	Namangan
		7.5.9. Gilamchilik	Xorazm viloyati, Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati,
		7.5.10.Palos to‘qish	Cho‘l xalqi, Jizzax va Navoiy viloyati
8	Milliy o‘yinlar turizmi 8.1.Ko‘pkari – uloq	8.1. Chavandoz ot ustidagi tortishuvda marraga uloq olib borishi-ko‘pkari	Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy
9	8.2. Milliy	8.2.Polvonlar kurashi	Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati,

	kurash	musobaqasi	Surxondaryo viloyati
10	8.3. Qo‘chqor urishtirish	8.3. Qo‘chqor urishtirish musobaqasi tomoshasi	Xorazm, Qoraqalpog‘iston, Buxoro viloyatlari
11	8.4. Xo‘roz urishtirish	8.4. Xo‘rozlar jangi tomoshasi	Samarkand shahri, Buxoro shahri, Farg‘ona vodiysidagi shaharlar
12	8.5. Bedana urishtirish	8.5. Bedanalar jangi tomoshasi	Samarkand, Buxoro, Farg‘ona vodiysidagi shaharlar
12	8.6.Dorbozlik	8.6 Baland tortilgan arqonda yurish, o‘yin ko‘rsatish	Toshkent viloyati, Farg‘ona viloyati
14	G‘orshunoslik turizmi	9.Tabiatdagi yer osti qasrlariga sayohat. 9.1 Amir Temur g‘origa qiziqish	O‘zbekiston hududidagi g‘orlar (400 makonda), Qashqadaryo viloyati
15	Agroturizm	10.Xalqimizning dehqonchilik usullariga qiziqish(xalqaro turizm uchun)	O‘zbekistonning sug‘oriladigan yerlar hududlari
16	Xalqaro polvonlar bellashuvi turizmi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida
17	Hayot uchun xavfli sport o‘yinlari turizmi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida

Maxsus turlarning geografiyasini o‘rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Turizdagi maxsus turlarning Respublikamizning deyarli barcha hududlarida manzillari bor. Jadvaldagi malumotlar dastlabki kuzatuvlar natijasi bo‘lib turizmdagi maxsus turlarning biz bilmagan manzillari ham juda ko‘plab tumanlar, shaharlar va qishloqlarda faoliyat ko‘rsatib kelayotganligini anglash, tushunish qiyin emas.
2. Respublikamizdagi maxsus turlarning aksariyat turlari shaharlarimizda va tumanlarda joylashgan. Ayniqsa Buxoro,

Samarkand, Toshkent, Xiva, Shahrisabz shaharlarida boshqa xalqlarda, mamlakatlarda uchramaydigan mo‘jizaviy, insonni hayratga soladigan, sovg‘abop va umumiy foydalanishga juda zarur bo‘lgan osori-atiqa buyumlar, qadimiy asbob-uskunalar ishlab chiqarilmoqdaki, ichki va xalqaro turizmda bunday imkoniyatlardan hanuzgacha foydalanilmay kelinayotganligi-
ning o‘zi afsuslanarli holdir.

3. Turizmdagi maxsus turlardan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg‘ona vodiysi va Shahrisabz shaharlarida majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak.

Malumki, xalqaro turistlar oqimi qayd qilingan shaharlarda kuzatilmoqda. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo‘llash vaqti keldi.

Bunday maqsadlarni, rejalarni amalga oshirish uchun shaharlardagi maxsus turlarning jahon andozalari bo‘yicha shakllantirilgan, sifatli naqshlangan buklov reklamalarini o‘zbek-rus va ingliz tillarida axborot va tushuntirishlar bilan mehmonxonalar, turistik firmalarga tarqatish va bu buklovlarni xorij davlatlardan kelgan turistlar bepul yoki sovg‘a sifatida olishlarini taminlash amalda kutilgan usullardan bo‘lishi shubhasizdir. Bu buklovlar turist vataniga qaytganidan keyin uning ko‘plab vatandoshlarini qiziqtirishi mumkin.

4. Turizmdagi maxsus turlarning hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik litseylar o‘quvchilarini shuningdek atrof tumanlardagi maktablar o‘quvchilarini imtiyozli ekskursiya usulida bu hunarmandchilik va ustachilik markazlarini ko‘rishlarini taminlash ichki turizmning rivojiga ijobiy tasir ko‘rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.

5. Turizmdagi maxsus turlardagi milliy o‘yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo‘q. Bu o‘yinlarni xalqimiz yilning mavsumlarida o‘zlari doimo tashkil qilmoqdalar. Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turistlarni bu milliy o‘yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o‘yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko‘rsatiladigan barcha xizmatlar ko‘rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi talab qilinadi.

Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish

yo‘llari

Prezidentimiz I.A.Karimov vatanimizning turistik salohiyatining, imkoniyatlarining nihoyatda kattaligini hisobga olib, 2006 yil 17 aprelda «O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlanrish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarorni qabul qildi.

Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi, tasnifi va geografiyasi bilan tanishganimizdan so‘ng turizmda foydalanishda bu turlar deyarli tayyor holatdaligini ko‘ramiz. Bu holatda maxsus turlardan foydalanishda birinchi navbatdagi vazifa maxsus turlardan foydalanishda xizmatlar ko‘rsatishning tashkil qilish va ishlab chiqishi hisoblanadi.

1. Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirishning birinchi navbatdagi vazifasi bu turlar haqidagi reklama mahsulotlari Respublikamizning barcha mehmonxonalarida, turistik firmalarida va turistik tashkilotlarida ko‘p tirajda bo‘lishligini taminlashdir.

2. Respublikamizda turizmning maxsus turlarini rivojlantirish uchun jahon talablariga mos keladigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan, kutiladigan natijalarni rejalashtirish bo‘yicha turli muddatlarga mo‘ljallangan grant loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqishini amalga oshirishni boshlash lozim bo‘ladi. Bu loyihalar, biznes rejalardan istiqbolli, barcha sarf-harajatlarni qisqa muddatlarda qoplaydigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan grant – loyihalar va biznes rejalarni amlga oshirish uchun davlatimiz tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilishi maxsus turlarni turizmda rivojlantirishda tubdan burilish bo‘ladi.

3. Turizmdagi maxsus turlarni reklama qilish yo‘nalishida jahonning turli tillarida O‘zbekiston xalqining ijodkorligi, yaratuvchanligi, milliy madaniyati va sanati, hunarmandchiligi, betakror-mo‘jizali buyumlar yaratishdagi qo‘li gul ustachiligi va boshqa davlatlarda uchramaydigan turli tuman, qiziqarli milliy o‘yinlari borligi haqida internetda saytlar ochish maxsus turizm turlarini rivojlantirish yo‘lidagi faol mehnatlardan bo‘ladi.

4. Turizmdagi maxsus turlardan foydalanish, bu turlarga ichki va tashqi turistik oqimni amalda hosil qiladigan «Maxsus turizm bo‘limlari»ni «O‘zbekturizm» Milliy kompaniyasining viloyatlardagi filiallarida ochish bu turlardan foydalanishdagi muammolarning yechimini qisqa fursatlarda topilishiga mustahkam zamin yaratadi.

5. Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatlariga keng yo‘l, imkoniyatlar ochib berish vaqti keldi. Shu

jumladan reklama maqsadida turizmning muxsus turlari haqida broshyura, buklovlar, varaqa, plakat-reklamalar, rangli malumotlarni katta tirajlarda chop etish, tarqatish maqsadli bo‘ladi. Turizmdagi maxsus turlarning jahon talablariga mos keladigan moddiy-texnik, axborot-malumotlar bazasini yaratish, xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish eng muhim ahamiyatga ega bo‘lishni hozirdan bajarmoq kerak.

Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish

Turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta imkoniyat va salohiyatga ega bo‘lgan turizmning maxsus turlarining istiqboldagi o‘rnini belgilash uchun albatta tashkiliy -harakat dasturini tuzish soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirdanoq anglamog‘imiz lozim.

Turizmning maxsus turlarini rivojlantirishning umumiy rejasi «konsepsiya» si yuqorida keltirildi. Navbatdagi vazifa bu turlarning istiqbolini belgilash, rivojlantirishning tashkiliy -harakat «Dasturi» ni ishlab chiqishdir. Mazkur mavzuning dolzarbligi, maqsadi, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati va vazifalarini bajarish nuqtai – nazaridan bizningcha turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish quyidagi reja «Dastur» asosida bajarilsa to‘g‘ri bo‘ladi (3 jadval).

3 jadval

Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish Dasturi

Bosqichlar	Bosqichda bajariladigan ishlar	Muddat
I-bosqich	1.1 O‘zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning to‘liq ro‘yxatini tuzish, tavsif va tariflarini yaratish, bu turlarning geografik manzillarini aniqlash. 1.2 Respublikamizda turizmning maxsus turlaridan foydalanishning huquqiy- qonuniy meyorlarini ishlab chiqish	2009-2010 yillar 2009-2010 yillar
	2.1 Turizmning maxsus turlari resurslariga- obektlariga – manzillariga qiymati jihatdan I-II-III darajali turistik marshrutlar	2010 yillardan

II –bosqich	ishlab chiqish va reklamalarini turizm bozoriga chiqarish. 2.1 Turizmdagi maxsus turlardan foydalanishda turga taklif qilinadigan turistik xizmatlar paketini yaratish va tashkil qilish, bu sohada xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish.	2010 yillardan
III–bosqich	3.1 O‘zbekistonda turizmning maxsus turlaridan ichki turizmda foydalanishni ommaviy ravishda boshlash va targ‘ibot ishlarini kuchli darajadagi reja bo‘yicha olib borish 3.2 Turizmdagi maxsus turlar resurslarida – obektlarida - manzillarida biznesni rivojlantirish orqali mahalliy aholi mehnat resurslari uchun qo‘shimcha ish o‘rinlariin yaratish va turistik infratuzilmalarni hosil qilish.	2009-2010 yillar 2009-2010 yillar
IV–bosqich	4.1 O‘zbekistonda turizmdagi maxsus turlardan xalqaro miqyosda foydalanishni boshlash. 4.2 Turizmdagi maxsus turlarning jahon talablariga mos keladigan moddiy- texnik, axborot-malumotlar bazasini yaratish, jahon andozalariga mos keladigan xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirib borish	2010 yildan keyingi yillar

Qayd qilmoqchimizki, «Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturi» bizning maxsus turlarni rivojlantirishning juda muhimligini bu turlar turizmda salohiyatli, ichki va xalqaro turizmni o‘ziga doimo jalb qiladigan muhim sohalardan bo‘lishiga ishonchdir.

Albatta, bu dastur dastlabki tahlil mahsuli bo‘lib, dasturni mukammal tuzishga turizmdagi mutaxassislar, professor - o‘qituvchilar, turistik firmalar va turistik tashkilotlar, «O‘zbekturizm»MK ishtirokida ko‘rib chiqish, muhokama qilish va keng qamrovli «Dastur»ga aylantirishni, muhim hujjat sifatida davlat maqomida rasmiylashtirishni talab qiladi.

Turizmdagi maxsus turlarga turistik marshrutlar ishlab chiqish

Inson ko‘rib, eshitib yurgan har qanday mo‘jizaviy inshootlar, tabiatning so‘lim go‘shalari, qadimiy obidalar, daryolar, sharsharalar, hayvonot yoki turli-tuman o‘simliklar o‘sadigan joylar, tomosha bog‘larning hammasiga malum bir yo‘ldan boriladi. Bu yo‘l turizmda «marshrut» deb ataladi.

O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat miqyosida, rahbarligida olib borilayotgan barcha chora – tadbirlarning birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgani - turistik marshrutlar ishlab chiqishdir.

Turistik resurs-obekt (qo‘riqxona, tarixiy-madaniy obida, arxeologik topilmalar va hokazolar) ga turist zerikmasdan boradigan va mazmunli dam olish yoki qoniqish olgandan keyin, asta-sekinlik bilan turistlar oqimini o‘ziga jalb qila boshlaydi.

«Marsh» so‘zi ruscha bo‘lib - «yo‘l» manosini anglatadi. Respublikamizdagi barcha turistik resursga-obektga-manzilu-makonga-maskanga yo‘l bor. Bu holat in’kor qilinmaydi. Lekin bu yo‘lni turistik marshrutga aylantirilgandan keyingina turistik resursda turistlar soni ko‘payishi mumkin. Turistik resursga hozirgi yo‘llar bilan ham turistlar olib boriladi. Lekin bu yo‘lda turistning erkin harakatlanishi, u xoxlagan vaqtda to‘xtashi, qiziqib qolgan yo‘l bo‘yi «obektlari» ga ekskursiyaga chiqishni talab qilishi yoki choy ichib dam olishni xoxlashi mumkin.

Turistik marshrut qayd qilingan, kutilmagan «takliflar»ning bajarilishi yoki «xizmatlar» majmuasi a’lo darajada kafolatlanishi uchun ham «turistik marshrut» deyiladi.

Turizmdagi maxsus turlar uchun marshrutlarni turistik marshrutdagi xizmatlar ko‘rsatish talabi bo‘yicha ikki guruhga bo‘lishimiz mumkin:

1-guruh – Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari;

2-guruh- Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari.

Turizdagi maxsus turlar geografiyasidan (2-jadval) malumki hozircha biz O‘zbekistonda turizmdagi maxsus turlarning 11 turini ro‘yxatga oldik. Bu turlar ham jami 51 tarmoqga, ko‘rinishlarga bo‘linib ketadi.

Birinchi guruhda turgan maxsus turlarning alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilmasligining sababi – bu turlar resurslari – obektlari asosan shaharlarimiz, tumanlarimiz markazlarining ichida yoki atroflarida joylashganligidir.

Malum bir shaharga kelgan har qanday darajadagi turistni maxsus turlar obektiga taklif qilish turoperatorning tadbirkorligiga bog‘liq. Maxsus tur shahar ichida yoki atrofida (masofa yaqin) bo‘lganligidan turistik marshrutdagi asosiy xizmatlar: marshrutdagi to‘xtashlar vaqtida, dam olish, ko‘ngilochar o‘yinlar o‘tkazish, ekzotik safar, tunash kabilar talab qilinmaydi.

Turist maxsus tur obekti bilan tanishgach, tomosha yoki so‘rab surishtirishlar, rasm yoki videoga olgach o‘zi to‘xtagan mehmonxonaga qaytadi. Turistik marshrutda yuqorida qayd qilingan xizmatlarning barchasi turist yashayotgan mehmonxona ma’muriyati tomonidan amalga oshiriladi.

Qayd qilingan mulohazalardan keyin 1-guruh quyidagicha to‘ldirilishi mumkin.

Birinchi guruh – Alohida turistik marshrutni talab qilmaydigan turizmning maxsus turlari:

1.1. Milliy madaniyatga qiziqish turizmi
1.2. Etnik va sog‘inish turizmi
1.3. Milliy sanat turizmi
1.4. Milliy hunarmandchilik turizmi
1.5. Milliy ustachilik turizmi.

Guruhdagi «Etnik va sog‘inish turizmi»ning alohida turistik marshrutlar talab qilmasligining sababi, bu turni amalga oshiruvchi turistlar aksariyat hollarda «o‘zboshimchalik» usulini qo‘llaydi, yani u boradigan joyini biladi va turistik firma yoki turizm operatori xizmatiga harajat qilishni xoxlamaydi. Bu holatning yana bir sababi «sog‘ingan» yaqinlari, do‘stlari, o‘rtoqlari mehmonxona xizmatlarining barchasini unga bepul taklif etadi, (mehmon sifatida). Uchinchidan, bu turdagi turistlar guruhlarni tashkil qilmaydi, aksincha yakka yoki oila tarkibida harakatlanadi.

Etnik, etnografik turizmda deyarli tadqiqotchilar-tarixchilar, adabiyotshunoslar, qiziquvchilar(bir yoki bir nechta turist) bo‘lganligidan maxsus marshrut ishlab chiqish zarurati yo‘q. Etnograf turistlar asosiy holatlarda tarjimon- yo‘lboshlovchi va transport turini ijaraga olib bir manzildan yoki bir axoli maskanidan ikkinchi bir manzilga erkin harakat qilishadi. Ular ancha oddiyroq turistlar bo‘lganligidan qishloqlarda, ovullarda yoki tumanlar markazlaridagi oddiy mahalliy mehmonxonalarda tunab, xizmatlarning deyarli barchasini o‘ziga-o‘zi xizmat usulida bajarib ketaveradi.

Sarguzasht turizmini O‘zbekistonda rivojlantirishga ehtiyoj ham zarurat ham yo‘q. Chunki bu turga qiziquvchilarni – «turist daydi» deb nomlashadi. «Turist daydi»lar har qanday turistik firma yoki turistik tashkilotlar bilan aloqalar qilishni xoxlashmaydi va manzildan-manzilga faqat o‘zi ko‘chib, so‘rab surishtirib yurishni xush ko‘rishadi.

Ikkinchi guruhga kiritilgan maxsus turlarning «alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilishi» ning bosh sababi – bu turlarning shaharlar va tumanlar markazlaridan uzoqda joylashganligidir. Turistik resursga-obektga borgan turist uchun bunday joylardagi birinchi muammo dam olish va tunash joylari va bu joylarda ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘lib qoladi.

«Milliy o‘yinlar turizmi» bilan kelgan turist albatta qishloqlardagi aholining milliy o‘yini tomoshalariga qiziqqanligi uchun boradi. Masalan, ko‘pkari-uloq o‘yini, qo‘chqor urishtirish tomoshalarini asosan Respublikamizning qishloqlarida yashovchi aholi o‘zlarining sunnat to‘ylarida, xalq bayramlari (Navro‘z, hosil bayrami va hok.) da tashkil qilishadi. Ayniqsa, xalqaro turizmdagi turistlar oqimini jalb qilish imkoniyatlari juda salohiyatli bo‘lgan «ko‘pkari» asosan respublikamizda paxta yig‘im-terimi tugagandan so‘ng – noyabr oyidan boshlanib, mart oyi –«Navruz» bayramigacha davom etadi.

Bu davr kuz-qish mavsumi bo‘lib «ko‘pkari» o‘yinini tomosha qilish uchun maxsus transport turida qishloqlarga, tog‘ oldi rayonlariga, adir hududlariga borish kerak.

Ikkinchidan, dam olish, tunash sharoitlari, xizmatlar ko‘rsatishni tashkil qilish lozim bo‘ladi. Bu holatda turizmdagi turlardan majmuali foydalanish tamoyilini qo‘llash maqsadli bo‘ladi. Aniqrog‘i tog‘ oldi, milliy o‘yinlar o‘tkaziladigan katta-katta, g‘uj joylashgan qishloqlarda, xo‘jaliklar markazida «turistik lagerlar» majmuasini yaratish turizmni rivojlantirishda maqsadli yo‘nalishdir. Bu turistik lagerlarda joylashib olgan turist milliy o‘yinlarni o‘z vaqtida tomosha qilish, bo‘sh vaqtlarda

lager atroflariga ekskursiyalarga borishi, mahalliy aholi hayoti bilan tanishishi, muloqotlarda bo‘lishi imkoniyatlariga ega bo‘ladi.

Albatta, «turistik lager» ning moddiy – texnika bazasi(elektr energiyasi, TV, radio, aloqa, issiq suv va hok.) ekologik toza, qayta tiklanuvchi muqobil energiya qurilmalari yaratilishi kerak. Turizm rivojlangan davlatlarda «turistik lagerlar» tizimi juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan va turistik oqimni yil davomida bir maromda tutib turadi.

Qishloq va fermerlar hayoti turizmida turist qishloq aholisi yoki fermer bilan birga yashashi, ishlashi mumkin. Chet davlatlarda bu turdan foydalanish shunday yo‘lga qo‘yilgan.

G‘orshunoslik va tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmini shakllantirishda albatta turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. G‘orshunoslik turizmida ko‘p hollarda turistning dam olishi, tunashi va ovqatlanishi uchun «palatkali» joylashtirish usulini qo‘llash lozim bo‘ladi.

Qayd qilingan mulohazalardan keyin 2- guruh quyidagicha to‘ldirilishi mumkin:

Ikkinchi guruh - Alohida turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qiladigan turizmning maxsus turlari.

2.1. Qishloq va fermerlar hayoti turizmi
2.2. Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi
2..3. Milliy o‘yinlar turizmi
2.4. G‘orshunoslik turizmi
2.5. Agroturizm.

Ikkinchi guruhdagi turizmning maxsus turlari turistik marshrutlar ishlab chiqishni talab qilar ekan, bu ishda turistik marshrutlar ishlab chiqishning asosiy tamoyillaridan foydalanish maqsadli bo‘ladi. Bu tamoyillar turizmning barcha turlari uchun turistik marshrutlar ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

TAVSIYALAR

Turizmdagi maxsus turlarning ob’ektlari - xalqimizning tarixiy davrlardan buyon shakllanib, sayqallanib kelayotganligi, bu madaniyat va san’at, loydan gul yasaydigan, milliy to‘n, atlas, do‘ppi tikadigan qo‘li gul hunarmandchiligi, temirdan san’at asari yaratadigan ustachiligi, jahondagi davlatlarda yashayotgan xalqlarda uchramaydigan, jasurlik-mardlikni kuylovchi milliy o‘yinlari, e’zozli mehmondorchiligi, saxovatli to‘yu-tomoshalari borligiga asoslanganligi uchun ham, xalqimizning milliy g‘ururini jahonga ko‘z-ko‘z qilishimiz va bundan faxrlanishimiz uchun ham xalqaro turizmda maxsus turlarni rivojlantirishimiz shart.

Mavzuning dolzarbligi, maqsadi, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati oldimizga qo‘ygan vazifalarning bajarilganligini ishning natijalari va xulosalaridan kelib chiqib turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish va turizm sohasidagi amaliyotda qo‘llash uchun quyidagi tavsiyalarni taklif qilamiz:

- Turizmning maxsus turlarining respublikamizdagi hamma resurslarini ro‘yxatga olish, tavsiflash va turizm sohasidagi o‘rnini, ahamiyatini belgilash;
- Turizmdagi maxsus turlar resurslariga turistik marshrutlar ishlab chiqishni, marshrutlarda talab qilinadigan xizmatlar majmuasini yaratish, maxsus turizm turlari haqida jahon andozalari, talablariga javob beradigan reklama tizimini ishlab chiqishni va dunyo mamlakatlari bo‘ylab doimiy ravishda tarqatib, targ‘ibot qilishni ta’minlash;
- Respublikamizda turizmga ixtisoslashgan barcha kollejlarda, O‘zbekiston Milliy Universitetining «O‘lkashunoslik va turizm» fakultetida, Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetining «Turizm» fakultetida, Samarqand iqtisodiyot va servis institutining «Servis va turizm» fakultetida turizmning maxsus turlari kursini talabalarga o‘qitish talim tizimiga kiritishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus talim vazirligiga taklif qilishni asoslash bu sohada yetuk mutaxassislar yetishtirib beradi;
- Respublikamizda turizmning maxsus turlarini rivojlantirish uchun ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan grant loyihalar ishlab

chiqish bu grant loyihalarni bajarish uchun davlatimiz tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish maxsus turlarni turizmda rivojlantirishda tub burilish bo‘ladi;

- Turizmdagi maxsus turlardan foydalanish, bu turlarga ichki va xalqaro turizm oqimini amalda hosil qiladigan «maxsus turizm bo‘limlari»ni «O‘bekturizm» MKda va bu kompaniyaning respublikamiz viloyatlarida tashkil qilish, bu turlardan turizmda foydalanishdagi muammolarning yechimini qisqa muddatlarda topilishiga mustahkam zamin yaratadi;
- Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatlariga keng yo‘l, sharoitlar va imkoniyatlar ochib berish.
- Turizmdagi maxsus turlarning jahon talablariga mos keladigan moddiy-texnik, axborot – malumotlar bazasini yaratish, xizmatlar ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish;
- «O‘zbekistonda turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish Dasturi»ni mukammal ishlab chiqishi va «O‘zbekturizm» MKsi «O‘zbekistonda turizmning maxsus turlarini rivojlantirish Dasturi»ning respublika viloyatlaridagi bo‘limlarida «Dastur»da belgilangan muddatlarda bajarilishini doimiy nazoratni o‘z zimmasiga olishi lozim.

●– · – · –●

Ushbu qo‘llanmani yozish uchun ma’lumotlar yig‘ishda ko‘plab uchrashuvlar, suhbatlar uyushtirildi. Taklif va tavsiyalar mazmuni jihatidan bitta bo‘ldi:

- Milliy hunarmandchilik, milliy o‘yinlarimiz va milliy-urf odatlarimizning unitilayotgan xillarini tiklash, ommaviylashtirish uchun turizm sohasidagi imkoniyatlardan foydalanish lozim.

Qashqardaryolik Azamat Nazarov «Darakchi» gazetasida «Milliy o‘yinlarimiz tiklansa» mavzudagi sarlavhasi bilan quyidagilarni yozadi:

- Men milliy o‘yinlarimiz haqida so‘z yuritmoqchiman. O‘zbek xalqining milliy bayramlarida xo‘roz, uloq, qo‘chqor, bedana urishtirish necha asrlardan buyon mavjud. Xalqimiz dam olish kunlarini, to‘y va sayillarni shu o‘yinlarsiz o‘tkazmaydi. Sobiq ittifoq davrida bunday o‘yinlarni qimor o‘yini deb yo‘qotmoqchi bo‘lishgandi. Shuning uchun ham bu o‘yinlar hozir unchalik ommaviylashmayapti.

Bir xo‘rozni boqib jangga tayyorlash uchun bir yil vaqt ketadi, 100.000 – 150 000 ming so‘m harajat qilinadi. Ishqibozlar urishtiriladigan

jonivorni yaxshi parvarishlaydi va moddiy mablag‘ orttirish uchun yaxshi zotni ko‘paytiradi. Omma ichida urishtirib g‘olib chiqsa, tuzukkina pulga sotadi, ham daromad keltiradi, ham jonivorning zotdorligini saqlash uchun izlanishga majbur bo‘ladi. Asosiysi, xalqqa zavq-shavq berib, yaxshi kunlarida xizmat qiladi.

Taklifim, bu o‘yinlar davlat tomonidan ro‘yxatga olinib, rivojlantirish choralari ko‘rilsa.

E’tibor qilsak kichkina hajmdagi maqolada katta taklif, seleksiya (zotni yaxshilash), iqtisod (qo‘shimcha mablag‘ topish), bandlik (parvarishlash, xursandchilik, zavq-shavqni tashkil qilish) kabi hayotiy muhim masalalar qo‘yilayapti. Kitobxonga havola qilinayotgan xalqimizning milliy buyumlar ishlab chiqarishdagi hunarmandchilik, milliy o‘yinlar, milliy madaniyati, tabiatdagi mo‘jizaviy haykallar, ovchilik usullari, milliy qo‘shiqchiligi, milliy raqs san’ati, arxeologik manzillar, antropogen tuzilmalar tarixiy-ekologik asrlar yilnomasidan o‘tib hozirgi ko‘rinishni olgan tavsiflar, yo‘nalishlar sabr-toqatli, chidamli, mehnatkash xalqimizning ming yillar davomidagi ijodiy mehnatini asrab-avaylab, saqlab kelayotganligini turizm orqali dunyo xalqlariga tanishtirishdek ulug‘ istaklar ham qo‘llanmadagi g‘oya bilan chambarchas bog‘langandir.

MUNDARIJA

Kirish…… 3

Turizmdagi asosiy va maxsus turlar…… 6

Turizmdagi asosiy turlarning tasnifi va tarifi…… 7

Turizmdagi maxsus turlarning tarifi…… 16
Maxsus turlarni turizmda shakllantirish…… 17
Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi va tasnifi… 20
Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi…… 25
Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish yo‘llari… 32
Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirish dasturini ishlabchiqish…… 33
Turizmdagi maxsus turlarga turistik marshrutlar ishlab chiqish…… 36
Tavsiyalar…… 40
Foydalanilgan adabiyotlar…… 44

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekistonning yangi qonunlari. Toshkent, Adolat, 2000.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekturizm Milliy Kompaniyasini tashkil qilish to‘g‘risida»gi farmoni. №PF-447. Xalq so‘zi, 1992, 22.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyundagi 1162 raqamli ««Buyuk Ipak Yo‘li»ni qayta tiklashda O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni. Xalq so‘zi. 1995. 3-iyun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 325- sonli qarori, 17- aprel 2006.
5. Aliyeva M.T., Umarjonov A.. «Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti». Toshkent, Moliya, 2005.
6. Aliyeva M.T., Salimova B.X. «Mehmonxona menejmenti». Toshkent, 2007.
7. Aliyeva M.T. Xasanov L.G.«Organizatsiya turisticheskix marshrutov» Toshkent, 2007.
8. Axmadxo‘jayev X., Mamarasulov X., Madiyorov F. «Marketing tadqiqotlari» Toshkent, 2002.
9. Aleksandrova L.Yu. Geografiya turizma. Moskva, 2008.
10. Axmedov X.I., Allaberganov A.A. Organizatsiya turisticheskoy deyatelnosti. Tashkent, 2004.
11. Birjakov M.B. «Vvedeniye v turizm». Izdatelstvo dom Gerda, 2006.
12. Durovich A.P. «Organizatsiya turizma» Moskva 2005.
13. Kvartalnov V.A. «Teoriya i praktika turizma». Moskva, «Finansi i statistika». Moskva, 2003.
14. Mamatqulov X.M. «Xalqaro turizm» Samarqand, 2008.
15. Nabiyeva S.A., I.A.Axmedov «Ekskursiyashunoslik» Toshkent, 2005.
16. Pardayev M.Q., Ataboyev R. Turizm asoslari. SamISI, Samarqand 2006.
17. Pardayev M.Q., Ataboyev R. Turistik resurslari tahlil qilish va baholash. SamISI, Samarqand 2006
18. Samadov A.I., Eshmuradov S.T. «Reklama faoliyatini tashkil etish» Toshkent, 2007.
19. Sokolova M.V. «Istoriya turizma» Moskva, Akademiya, 2004.
20. Sorokina A.V. Organizatsiye obslujivaniye v gostinitsax i turisticheskix kompleksax. Moskva 2007.
21. Tuxliyev I.S. «Turizm asoslari» Samarqand, 2008.
22. Qudaratov G‘.H., Tuxliyev I.S. «Turizm iqtisodiyoti»

Samarqand, 2007.
23. Tuxliyev N., Abdullayeva T. «Natsionalnie modeli razvitiya turizma» Toshkent, 2006.
24. Xayitboyev R., Xayitboyev K., Xudoyberdiyev U.X. «Tabiatdan foydalanish iqtisodi». Samarqand, 2004.
25. Eshtayev A.A, Axmedov I.A., Aliyeva M.T. «Turizmni rejalashtirish». Toshkent, 2007.